

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4

“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA INNOVATSIYALARINI  
KENG JORIY QILISH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI  
INSTITUTSIONAL TARAQQIY ETTIRISH DOLZARBLIGI

INSTITUTIONAL DEVELOPMENT OF A SUSTAINABLE  
ECONOMY AND WIDE IMPLEMENTATION OF INNOVATIONS  
DURING THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ УСТОЙЧИВОЙ  
ЭКОНОМИКИ И ШИРОКОЕ ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ ПРИ  
ПЕРЕХОДЕ К “ЗЕЛЕНОЙ” ЭКОНОМИКЕ

Onlayin xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 20-may



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Majlis qonunchilik palatasi deputati

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Afraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



## III shu'ba

YANGI O'ZBEKISTONDAGI KO'P VEKTORLI, PROGMATIK,  
KONSEPTUAL ISLOHOTLARIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI  
KENG JORIY ETISH ORQALI TARKIBIY O'ZGARTIRISHLARNI  
CHUQURLASHTIRISH

## Section III

DEEPENING STRUCTURAL CHANGES DUE TO WIDE  
IMPLEMENTATION OF "GREEN" ECONOMY  
IN MULTI-VECTOR PROGRAMMATIC, CONCEPTUAL REFORM  
IN THE NEW UZBEKISTAN

## III секция

УГЛУБЛЕНИЕ СТРУКТУРНЫХ ПЕРЕМЕН ЗА СЧЕТ  
ШИРОКОГО ВНЕДРЕНИЯ "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКИ  
В МНОГОВЕКТОРНЫХ ПРОГРАМАТИЧЕСКИХ,  
КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ РЕФОРМАХ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ





# YER VA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA O'SIMLIKCHILIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Khalimova Dilora Olimboyevna**

TDIU, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistondagi global iqlim o'zgarishlari tufayli suv taqchilligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash uchun mayjud suv resurslaridan samarali foydalanish va sug'orishning tejamkor texnologiyalarini keng joriy qilish muhim ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy resurs, global iqlim o'zgarishi, sug'oriladigan yerlar, lalmi yerlar, kimyoviy o'g'itlar.

**Abstract:** In this article, in the conditions of water shortage due to global climate changes in Uzbekistan, in order to obtain a high yield from agricultural crops and to provide the population with food products efficiently, the effective use of existing water resources and the widespread introduction of economical irrigation technologies important importance is mentioned.

**Key words:** economic resource, global climate change, irrigated land, dry land, chemical fertilizers.

**Аннотация:** В данной статье в условиях водного дефицита, обусловленного глобальными изменениями климата в Узбекистане, в целях получения высокого урожая сельскохозяйственных культур и эффективного обеспечения населения продуктами питания, эффективное использование существующих водных ресурсов и широкое распространение Отмечено важное значение внедрения экономичных технологий орошения.

**Ключевые слова:** экономический ресурс, глобальные изменения климата, орошаемые земли, засушливые земли, химические удобрения.

## KIRISH

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ularni asrash borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Zero, yer odamlarni boqsa, kiyintirsa, suv esa tiriklik manbayi, tabiatning bebafo in'omidir.

Ayni chog'da qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni tashkil etadi. Bundan 3,2 million gektari sug'oriladigan ekin yer maydonlari bo'lib, unda aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun esa zarur xom ashyo yetishtirilmoqda.

Lekin so'nggi yillarda mamlakatimiz aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarning boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga, o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqargani kuzatilmoqda.

Bu borada yurtimizda sug'oriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv ta'minotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng ko'lamli irrigasiya va meliorasiya tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar natijasida 2008–2017-yillar mobaynida 1,7 million gektardan ortiq sug'oriladigan maydonlarning suv ta'minoti hamda 2,5 million maydonlarning meliorativ holati yaxshilanishiga erishildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalarini iqtisodiy resurslarining mohiyati va shakllanish xususiyatlari, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishning modellari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.



Rossiyalik olimlar M.K. Bunkina, V.A. Semenovlar bunday deydilar: "Sotish uchun mo'ljallangan tovarlarning katta massasi moddiy shaklga ega bo'lgan kommunal xizmatlardir. Ularni ishlab chiqarishda to'rtta asosiy omil o'zaro munosabatda bo'ladi: tabiiy resurslar, mehnat, kapital va tadbirkorlik".

R. Nureev, A.D. Smirnovlar fikricha: "Iqtisodiy resurslar (yoki ishlab chiqarish omillari) – bu iqtisodiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlataladigan elementlar: zamonaviy jamiyatda ulardan eng muhim yer, mehnat, kapital (shu jumladan uni tashkil etish), tadbirkorlik qobiliyati va axborotlarni o'z ichiga oladi" [4] deb, tadqiq etilgan.

Shuningdek, B.A. Reysberg omillar iqtisodiy jarayonlarning mohiyati va samaradorligini belgilovchi parametrlar deb hisoblaydi; yaratilgan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatini oldindan belgilash, ya'ni omil ishlab chiqarish resurslari emas, balki iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatidir, deb ta'kidlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari jarayonida kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv va statistik ma'lumotlar tahlil usul-laridan foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Prezidentimizning 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-sonli Farmoni ushbu salbiy oqibatlarning ta'sirini kamaytirish va kelgusida bartaraf qilishga xizmat qilayotir.

Mazkur hujjatdan respublikada yillar davomida irrigasiya va meliorasiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralardan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yo'qotilishini kamaytirishdek muhim vazifalar o'rinni olib borilmoqda. Qolaversa, zamonaviy usullar asosida mamlakat oziq-ovqat ta'minoti barqarorligiga erishish uchun yangi serhosil qishloq xo'jaligi ekinlari, ularning birlamchi urug'chiligin yaratishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Olib borilayotgan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligida suv resurslaridan ehtiyojkorlik bilan foydalanish tabiiy tizimlarda ekologik muvozanat va bioxilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Toza va sog'lom suv ekotizimlarini saqlash ularning ifloslantiruvchi moddalarni mustaqil ravishda qayta ishslash va turli xil suv organizmlarining hayotini qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlataladigan kimyoviy o'g'itlar va pestisidlar, agar ular to'g'ri ishlatilmasa, suv resurslari ifloslantirishi mumkin. Atrof-muhit omillarini hisobga olish va suv resurslarini hurmat qilish suvning kimyoviy birikmalar bilan ifloslanish xavfini kamaytirishga, sanoat va maishiy maqsadlarda foydalanish uchun zarur bo'lgan suv sifatini oshirishga yordam beradi.

"O'zbekiston–2030" strategiyasida 18,7 ming km. yoki 66 foizi tuproq o'zanli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamlari ulushini 13,1 ming km.ga yoki 46 foizga yetkazish, shuningdek, melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sug'oriladigan yer maydonlarida sho'rlangan maydonlarni 1,7 million gektargacha kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Keyingi yillarda yurtimizda ushbu masalaga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki suv manbalari O'zbekistondagi ko'plab ekotizimlar, jumladan, daryolar, ko'llar va suv omborlari uchun muhim ahamiyatga ega. Suv resurslariga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish va ularni boshqarish biologik xilma-xillikni saqlashga, suv sifatini yaxshilashga olib keladi va ekoturizmi saqlash hamda rivojlantirish imkonini beradi.

Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, shu kabi ta'sirlar natijasida mintaqadagi ekologik inqirozning eng xavfli nuqtasi hisoblangan "Orol muammosi" vujudga keldi.

Bu haqda quyidagi ma'lumotlar fikrimizni isbotlaydi. Oxirgi 40–45 yil davomida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib ketdi, akvatoriya maydoni 4 martadan ziyodga kamaydi, suv hajmi 10 baravargacha (1064 kub km dan 70 kub km) kamaydi, suv tarkibidagi tuz miqdori 112 g/l gacha, Orolning sharqiy qismida esa 280 g/l gacha yetdi. Orol dengizi deyarli "o'lik" dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4,2 mln. gektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum-tuzli aerozollarini tarqatish manbayiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. tonnagacha chang ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtida, Amudaryo va Sirdaryoning del-talarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho'llashish sur'atlari o'sib bormoqda.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra har yili dengiz o'rnidagi sahrodan 100-150 million tonnadan ko'proq chang-tuz osmonga ko'tarila boshlagan. Tabiiyki bu holat nafaqat atrof-muhit balki insonlar hayotiga ham katta



ta'sir ko'rsatadi. Buning oqibatida har xil kasalliklar ko'paygan. Xususan, saraton turlari, o'pka va yurak kasalliklari avj olgan. Ayniqsa 1990-yillarda yosh bolalar o'ttasidagi o'lim Qoraqalpog'istonda mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan yuqori bo'lgan. Hatto tug'ilayotgan bolalarning ko'pchligida nogironlik holati kuzatila boshlaydi. Bir so'z bilan aytganda Orol dengizining qurishi mintaqaga katta ta'sir ko'rsatadi. Orol dengizi muammosi hal qilinishining tub mohiyati suv resurslaridan oqilona foydalanishni amalga oshirishdir. "Biz Orol dengizini qutqarmoqchimiz ammo butun mintaqani ham sug'orma dehqonchilikdan voz kechishi ham imkonsiz" – deydi Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg'armasi rahbari Medad Aspanov. Orolning qurishi birgina suv muammosini emas balki, atrof-muhitning ifloslanishiga ham olib keldi.

Xususan tuzlarning yer yuzasiga yog'ilishi paxta hosildorligining 5-15% sholining esa 3-6% ga hosildorligi kamayishiga olib keldi. Orol bo'yida yog'ilayotgan chang-tuz zarralarining umumiyligi miqdori o'ttacha har gektar maydonga 52 kg.ni tashkil etgan holda tuproq holati yomonlashuvini asosiy sababchilaridan biri bo'lib qolganligi hech kimga sir emas. Sho'rlangan qum to'zoni yiliga Orol bo'yidagi 15 ming gektarga yaqin yaylovlarni ishdan chiqargan. G'o'za uchun ajratilgan maydonlar kasallik qo'zg'atuvchi zararkunandalar bilan zararlangan. Qishloq xo'jaligi mahsuotlarining hosili esa yildan-yilga pasayib bormoqda. Bu esa katta iqtisodiy yo'qotish edi. Xolis qaralsa fojeaning og'ir yuki O'zbekiston chekiga tushmoqda. Ayrim xalqaro mutaxassislar O'zbekiston hukumati Orolni qutqarish yo'lida jiddiy harakat qilmadi degan fikrlar bildirilgan. Ammo O'zbekiston bu muammoni hal qilish uchun qo'ldan kelgancha harakat qilmo qda. Bir so'z bilan aytganda muammo hali ham o'z yechimini topgani yo'q.

Yuqoridagi muammolarning yechimi sifatida so'nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvgaga bo'lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda, va shu bilan bir qatorda aytib o'tish joizki, joriy yilda respublikamizda foydalanilgan o'ttacha yillik suv miqdori 51-53 mlrd kub metrni, jumladan, 97,2 foizi daryo va soylardan, 1,9 foizi kollektor tarmoqlaridan, 0,9 foizi esa yer ostidan foydalanib, ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20 foizga qisqargan. Bu kabi muommolarni bartaraf etish uchun Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Ushbu konsepsiyada O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini, autsorsing va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish hisobidan tejadaligan mablag'lar suv inshootlarini modernizatsiya qilish, suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish va xodimlarning oylik ish haqini bosqichma-bosqich oshirishga yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Suv resurslardan unumli foydalanmaslikka yana bir misol qishloq xo'jaligida ishlatiladigan suvning ko'p qismi ishlatilmay yerga tushadi yoki bug'lanadi. Bu muammoga yechim qilib, Germaniyaning "ZIM Plant Technology" kompaniyasi barglarga yopishtirilgan va o'simliklarga qancha suv kerakligini aniqlaydigan sensorlarni keltirishimiz mumkin. Odamlardagi qon bosimi o'lchagichiga o'xshab, sensorlar barglarning ichki hujayra bosimini o'lchaydi va ma'lumotlarni serverga uzatadi. Hujayralardagi bosim qanchalik yuqori bo'lishiga qarab, o'simliklar kerakli miqdorda suv bilan ta'minlanadi. Har bir o'simlik o'ziga xos sensorga muhtoj emas. 20 gektar maydon uchun fermerlarga atigi oltita datchik kerak. Shunday qilib, ularni optimal sug'orish mumkin. Shu kabi tejomkor texnologiyalardan hamkorlikda bizning xam zaminimizda qo'llasak albatta o'z natijasini beradi. Bunday texnologiyalar juda ko'p misol qilishimiz mumkin, va tadbiq qilishimiz natijasida Zamonaviy suv tejovchi sug'orish texnologiyalardan foydalanish ko'lамини kengaytirish yo'nalishida qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish 175 ming gektardan 2025-yilgacha 1 million gektarga, 2030-yilga kelib 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasi 77,4 mingdan 2025-yilgacha 300 ming gektargacha va 2030-yilga kelib 600 ming gektargacha yetkazilishini amalga oshirishimiz mumkin. "Smart Water" ("Aqli suv") axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar asosida suv o'lchash tizimi joriy etilgan suv xo'jaligi obyektlari soni 61 tadan 2020-yilda 151 tagacha, 2024-yilda 18576 tagacha (100 foiz) ko'paytirish ko'zda tutilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, azaldan ota-bobolarimiz suvni har tomchisini muqaddas ne'mat bilib, uning har tomchisidan samarali va tejamli foydalanishgan. Chunki suv resurslarning miqdori va sifati jamiyatning barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishini muhim ommilaridan biri hisoblangan. Shuning uchun suvni asrab avaylash kerak suv bu hayot, uni asrab avaylab kelajak avlotga yetkazaylik.

Quvonarli tomoni, qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ayniqsa, suvni tejash mamlakatga iqlim o'zgarishiga moslashish va ichimlik suvning kamayishi, yong'in va qurg'oqchilik xavfinining oshishi kabi salbiy ta'sirni yumshatishda muhim omil bo'ladi.



Umuman olganda, agrosanoat tizimida suv resurslarini saqlash, ekologik omillarni hisobga olish fermerlar va qishloq xo'jaligi korxonalarining jamiyat oldidagi mas'uliyati va burchidir. Zero, bu oziq-ovqat xavfsizligini va uzoq muddatli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Jamiyat suv muammolarini hal qilish va suv taqchilligini kamaytirish uchun qat'iy harakatlarni amalga oshirish zarurligini anglab yetmoqda. Suv resurslarini boshqarishda mavjud qoliplarga barham berish uchun suvdan foydalanish prinsiplari qayta ko'rib chiqilmoqda, qulay hamda maqbul choralar izlanmoqda. Shunisi e'tiborliki, aynan keyingi yillarda yuz bergan suv taqchilligi suvning naqadar ulug' ne'mat ekanligini anglab yetishga va har bir odam mavjud vaziyatning o'nglanishi uchun shaxsan nima qila olishi mumkinligi borasida o'yashga undadi va bu suvdan tejab-tergab foydalanish an'analarining qayta tiklanishida muhim omil bo'ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Abdug'aniyev. O'tish davrida yer munosabatlari. Toshkent, TDIU, 1997.
2. A.S.Sultonov "Suv xo'jaligi iqtisodiyoti", ma'ruzalar matni, TIMI, 2005.
3. A.S.Sultonov "Suv xo'jaligi iqtisodiyoti", ma'ruzalar matni, TIMI, 2005.
4. A.S.Sultonov, U.Hoshimov. Qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib berilgan suv uchun sarflangan xarajatlarni hisoblash uslubi. WASHINGTON STATE UNIVERSITY. Iyulü, 1. 2006.
5. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasiga ilova. PF-6024 10.07.2020.
6. Zim Plant Technology Adress: Neuendorfstrasse 19 Hennigsdorf, D-16761 Germany [www.zim-plant-technology.com](http://www.zim-plant-technology.com).



# MUNDARIJA

I shu'ba

IJTIMOIY-IQTISODIY BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH UCHUN "YASHIL" IQTISODIYOTGA  
JADAL O'TISH

Section I

ACCELERATED TRANSITION TO A GREEN ECONOMY TO ACHIEVE SOCIO-ECONOMIC SUSTAINABLE  
DEVELOPMENT GOALS

I секция

УСКОРЕННЫЙ ПЕРЕХОД К "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКЕ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ СОЦИАЛЬНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОГО УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

The Development of Marketing Innovations in Retail Trade .....	4
<b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>	
Направления совершенствования стратегии компании для успешной организации IPO .....	9
<b>Шахзод Сайдуллаев</b>	
"Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish .....	11
<b>Abdurahmonov Xolboy To'xtayevich</b>	
Тўқимачилик саноати кластерлари инновацион фаолиятининг барқарор ривожланиш муаммолари ва ечимлари .....	14
<b>Икрамов Мақсад Муратович</b>	
O'zbekistonda chakana savdo korxonalarini rivojlanishi va innovatsion faoliyati .....	20
<b>Karimov Baxrom Ilhomjonovich</b>	
Unveiling the Dynamics of Agglomeration Economies in Sustainable Development .....	24
<b>Khakimov Ziyodulla Akhmadovich</b>	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik mahsulotlari bozorini diversifikatsiyalash usullari .....	28
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
Qashqadaryo viloyatida Safari turizmini rivojlantirish dinamikasini o'rganish .....	32
<b>Ro'ziyev Bobir Akramovich</b>	
Брендни шакллантириш ва ривожлентериш бўйича замонавий маркетинг назариялари ва стратегиялари .....	34
<b>Зияева Шахло Шоакбар қизи</b>	
The Development of Marketing Innovations in Retail Trade .....	37
<b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>	
Ногиронлиги бор шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари .....	42
<b>Каримов Бекзоджон Илхомович</b>	
Ichki turizmni rivojlanlantirish tashkiliy mexanizmining asosiy prinsiplari .....	45
<b>Dehqonov Burxon Rustamovich</b>	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda ko'zi ojizlar bandligining innovatsion yechimi .....	48
<b>Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li</b>	
Auditorlik tekshiruvini halqaro standartlar asosida tashkil этиш хусусиятлари .....	51
<b>Исмоилова Феруза Исройловна</b>	



## II shu'ba

"YASHIL" IQTISODIYOTGA INNOVATSIYALARNI KENG JORIY ETISHDA  
ILMIY TADQIQOT ISHLARINING LOYIHAVIY ISTIQBOLLARI

## Section II

DESIGN PERSPECTIVES FOR RESEARCH WORK ON THE WIDE IMPLEMENTATION  
OF INNOVATIONS IN THE GREEN ECONOMY

## II секция

ПРОЕКТНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ  
ПО ШИРОКОМУ ВНЕДРЕНИЮ ИННОВАЦИЙ В "ЗЕЛЕНУЮ" ЭКОНОМИКУ

Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish.....	56
<b>Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi</b>	
Rivojlanayotgan mamlakatlarda fond bozorining rivojlanishi tahlili.....	58
<b>Axmedov Doniyorbek Ulugbek o'g'li</b>	
Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari .....	60
<b>Kultayev Farxod Shavkatovich</b>	
Янги Ўзбекистонда инсон экологиясини юксалтиришнинг инновацион механизмлари .....	62
<b>Ҳакимов Назар Ҳакимович, Раҳмонов Дўстмурод Абдиназарович</b>	
Tadbirkorlik sубъектларини ривожлантиришда саноат ипотекасининг ўрни .....	67
<b>Султанов Баҳром Бегдуллаевич</b>	
Ижтимоий ҳимояни ривожлантиришда янгича ёндашувлар .....	70
<b>Каримов Бекзоджон Илхомович</b>	
Kapital bозорини ривожлантириш масалалари .....	72
<b>Турдиева Узайда Омираевна</b>	
Инновацион тараққиёт йўлига ўтиш даврида меҳнатга ҳақ тўлашнинг рағбатлантирувчи таъсирини оширирилиши .....	74
<b>Алимжон Қулматов</b>	
Zamonaviy logistika tizimida marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish .....	78
<b>Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li</b>	
The Development of Marketing Innovations in Retail Trade.....	81
<b>Shakhriyor Sadullaev, Sadullayeva Shahrizoda</b>	
Innovatsion rivojlanishni baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish (xorij tajribasi) .....	86
<b>Nuriddinov Zufar Akbarovich</b>	
Maxsus иқтисодий зоналар фаолияти самарадорлигини ошириш борасида амалга оширилаётган ишлар тўғрисида.....	90
<b>Давлаев Фолиб Ашуревич</b>	
Hududlarning iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyot va "yashil" ish o'rinalarining ahamiyati.....	92
<b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor og'li</b>	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalar jarayonlarini samarali boshqarish yo'llari .....	94
<b>Safarova Dilfuza Baxramovna</b>	
Ижтимоий харажатларни молиялаштиришнинг асосий масалалари .....	99
<b>Тураев Очил Ярашевич</b>	
Инсофли солиқ тўловчиларни кўпайтириш – солиқ кўрсаткичларининг муҳим омили сифатида.....	102
<b>Абдурасулов Алишер Абдурасулович</b>	
Ўзбекистоннинг солиқ сиёсати – макроиқтисодий барқарорликни таъминлашнинг муҳим омилидир...	106
<b>Хотамов Алишер Фарходович</b>	
Mулкий муносабатларни ривожлантиришга таъсир этувчи омилларни тартибига солиш ва самарали бошқариш усуслари .....	109
<b>Бобобеков Эргаш Абдумаликович</b>	



## III shu'ba

YANGI O'ZBEKISTONDAGI KO'P VEKTORLI, PROGMATIK, KONSEPTUAL ISLOHOTLARIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI KENG JORIY ETISH ORQALI TARKIBIY O'ZGARTIRISHLARNI CHUQURLASHTIRISH

## Section III

DEEPENING STRUCTURAL CHANGES DUE TO WIDE IMPLEMENTATION OF "GREEN" ECONOMY  
IN MULTI-VECTOR PROGRAMMATIC, CONCEPTUAL REFORM IN THE NEW UZBEKISTAN

## III секция

УГЛУБЛЕНИЕ СТРУКТУРНЫХ ПЕРЕМЕН ЗА СЧЕТ ШИРОКОГО ВНЕДРЕНИЯ "ЗЕЛЕНОЙ" ЭКОНОМИКИ В  
МНОГОВЕКТОРНЫХ ПРОГРАМАТИЧЕСКИХ, КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ РЕФОРМАХ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Инклюзив иқтисодий ўсиш: назария, муаммо ва уларнинг ечимлари.....	113
Тангрибердиев Сулаймон Камилжонович	
O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari.....	116
Davranov Iskandar Jumayevich	
Предпосылки развития зелёного финансирования коммерческими банками Узбекистана .....	123
Шадиева Дилдора	
Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини ошириш йўллари.....	125
Йўлдошев Сафармурод Муҳаммадович	
Анализ и оценка учета финансовых результатов и направления его к совершенствованию.....	128
Шин Инесса Олеговна	
Soliq ma'muriyatçiligin raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning ustuvor yo'nalishlari ...	132
Davranov Iskandar Jumayevich	
Йирик инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш, самарали молиялаштириш манбаларини аниқлаш ва уларни амалга оширишда юзага келадиган асосий хатарлар (рисклар)ни таҳлил қилиш ("Олмалиқ КМК" АЖ мисолида) .....	135
Аббосхон Азимов Гайратиевич	
Тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини ошириш йўллари.....	139
Йўлдошев Сафармурод Муҳаммадович	
Корпоратив тузилмаларда дебитор қарздорликнинг иқтисодий моҳияти ва асосий мезонлари .....	142
Мустафаева Шахло Мирзакуловна	
Тижорат банкининг комплаенс назорати, унинг моҳияти ва аҳамияти.....	145
Юнусов Бахтиёр Шавкатович	
O'zbekiston Respublikasida zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish istiqbollari .....	149
Kadirov Laziz	
Xorijiy mamlakat banklarida ilk bor komplayens nazoratiga bo'lgan ehtiyoj hamda sanksiyon komplayensning o'ziga xos xususiyatlari.....	152
Yunusov Baxtiyor Shavkatovich	
Raqamli iqtisodiyotda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida mehnat unumdorligini oshirish asoslari.....	154
Abduraimov Abdulaziz Ulug'bek o'g'li	
Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish asosida o'simlikchilik samaradorligini oshirish .....	157
Khalimova Dilora Olimboyevna	

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

### 2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

